Shunday bo'lsa-da, Y.K. Tolstoy va A.P. Sergeyev meros qoldiruvchini meros huquqidagi markaziy shaxslardan biri sifatida e'tirof etadi: u munosabatning subyekti bo'lmasa-da, "ko'zga ko'rinmas tarzda" meros bilan bog'liq vaziyatda mavjud bo'ladi (Kunitsin, 2011).

Meros masalalari bo'yicha tadqiqotchi olim R.R. Yaneyeva ilmiy maqolasida meros huquqiy munosabatlari subyektlari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi (Yaneva, 2009):

1) vasiyatnoma bo'yicha merosxo'rlar;
2) qonun bo'yicha merosxo'rlar;
3) taqdim etish huquqi asosida meros oluvchi merosxo'rlar;
4) meros transmissiyasi tartibida vorislik qiluvchi merosxo'rlar;
5) majburiy ulush olishga huquqi bo'lgan merosxo'rlar;
6) meros qoldiruvchining mehnatga layoqatsiz boqimlari;
7) voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz yoki cheklangan muomalaga layoqatli merosxo'rlarning vakillari;
8) ishonchnoma asosida harakat qiluvchi merosxo'rlarning vakillari;
9) vasiyatnomani ijro etuvchi;
10) vasiyat majburiyatini oluvchi;
11) vasiyat majburiyatini oluvchilarga tayinlangan shaxslar;
12) notarius;
13) davlat.

Huquqshunos olim M.I. Amirov esa meros huquqiy munosabatlari subyektlarini quyidagicha tasniflashni taklif etadi: meros huquqiy munosabatlarining asosiy subyektlari: meros qoldiruvchi va merosxo'r; meros huquqiy munosabatlarida ishtirok etuvchi shaxslar: vasiyatnoma ijrochisi (vasiyatni bajaruvchi) va vasiyat bo'yicha mulk oluvchi (legatariy); meros huquqiy munosabatlariga ko'maklashuvchi shaxslar: guvoh, imzo chekuvchi, tarjimon, notarius va vasiyatnomalarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxslar, vasiylik va homiylik organlari. Ularning faoliyati meros huquqiy munosabatlarini rasmiylashtirish yoki amalga oshirishga qaratilgan (Amirov, 2016). Mazkur tasnif amaliy jihatdan qulay bo'lsa-da, meros qoldiruvchini subyekt sifatida kiritish nuqtayi nazari yuqorida keltirilgan asoslar sababli ilmiy jihatdan bahsli va ishonchsizdir.

Eng asosli yondashuv A.Y. Kazanseva tomonidan bildirilgan quyidagi g'oyada ifodalanadi: "Shaxs vafot etgan paytda meros qoldiruvchiga aylanadi va u huquq layoqatini yo'qotadi; uning mol-mulki, mulkiy huquqlari va ayrim shaxsiy nomulkiy huquq hamda majburiyatlari meros mulkini tashkil etadi; vafotiga qadar esa u faqat ehtimoliy meros qoldiruvchi bo'ladi. Shaxs huquq layoqatini yo'qotganidan keyin u har qanday huquqiy munosabatning subyekti bo'lish qobiliyatidan ham mahrum bo'ladi".

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlarini o‘rganib chiqib, subyektlar qatoriga meros qoldiruvchini kiritmagan holda meros huquqiy munosabatlari subyektlarining tarkibini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

– majburiy subyektlar: merosxo‘rlar (qonun va vasiyatnoma bo‘yicha);

– ishtirok etuvchi shaxslar: vasiyatnoma ijrochisi, meros boshqaruvchisi;

– ko‘maklashuvchi shaxslar: sud, notarius, tarjimon, guvoh, vasiyatnomani tasdiqlash huquqiga ega shaxslar.

An’anaviy ravishda meros huquqiy munosabatlarining subyekt tarkibi merosxo‘rlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy sivilistik ta’limotda ular majburiy subyektlar deb e’tirof etiladi. Bu, avvalo, merosxo‘rsiz meros huquqiy munosabatining mavjud bo‘la olmasligi bilan izohlanadi.

Mazkur keltirilgan fikr asosli bo‘lib, merosxo‘rlarning huquqiy maqomiga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (bundan buyon – FK)da alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, FKda noloyiq merosxo‘rlar, majburiy ulushga ega shaxslar toifasi belgilangan hamda qonun bo‘yicha vorislikda merosxo‘rlar navbati tartibga solingan. Merosxo‘rlarning asosiy o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular FK bilan tartibga solinadigan meros huquqiy munosabatlarida o‘zlariga tegishli huquq va majburiyatlar majmui asosida mazkur munosabatlarning subyekti sifatida maydonga chiqadilar.

Merosxo‘rlarning huquqiy maqomi yuridik fanda eng ko‘p va chuqur o‘rganilgan institutlardan biri hisoblanadi. Bu bejiz emas, chunki merosxo‘r meros huquqiy munosabatlarining markaziy subyekti bo‘lib, aynan uning orqali vorislik mexanizmi amalda ro‘yobga chiqadi. Shu sababli merosxo‘r tushunchasiga berilgan ta’riflar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda merosxo‘r tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, A.A. Kotsyumbas (2006) merosxo‘rni *“merosxo‘r qonunda yoki vasiyatnomada meros qoldiruvchining huquqiy vorisi sifatida ko‘rsatilgan, vafot etgan meros qoldiruvchining barcha huquqiy munosabatlariga kirishuvchi shaxs”* sifatida tavsiflaydi. Mazkur ta’rifda merosxo‘rning asosiy belgisi sifatida uning huquqiy voris maqomi va meros qoldiruvchining barcha huquqiy munosabatlariga kirishish xususiyati e’tirof etiladi. Bu yondashuv vorislikning universal xarakterini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

L.Y. Grudsina tomonidan berilgan ta’rifda esa merosxo‘r *“meros qoldiruvchining vafoti munosabati bilan uning huquq va majburiyatlari o‘tadigan shaxs”* sifatida izohlanadi (Grudtsyna, 2015). Ushbu yondashuvda e’tibor merosxo‘rning huquq va majburiyatlarni qabul qiluvchi subyekt sifatidagi maqomiga qaratilgan bo‘lib, unda merosning o‘tish asoslari va shakllari (qonun yoki vasiyat) alohida ko‘rsatib o‘tilmagan. Shu jihatdan mazkur ta’rif nisbatan umumiy xarakterga ega.

Z.U. Gasanov (2013) esa merosxo‘rni *“vorislik jarayonida yuridik manfaatga ega bo‘lib, universal huquqiy vorislik tartibida meros qoldiruvchining mol-mulki, mulkiy huquqlari va majburiyatlarini qabul qiluvchi shaxs”* sifatida tavsiflaydi. Ushbu ta’rifning afzalligi shundaki, unda merosxo‘rning yuridik manfaatdorligi, vorislikning universal xususiyati hamda meros tarkibiga kiruvchi obyektlar doirasi (mol-mulk, mulkiy huquqlar va majburiyatlar) aniq ko‘rsatilgan.

Keltirilgan ta’riflarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular quyidagi umumiy belgilarni o‘zida mujassam etadi:

– merosxo‘r – meros qoldiruvchining huquqiy vorisi;

– huquq va majburiyatlar meros qoldiruvchining vafoti bilan bog‘liq holda o‘tadi;

– vorislik universal xarakterga ega;

– merosxo‘rning maqomi qonun yoki vasiyat asosida yuzaga keladi.

Biroq nazariy adabiyotlarda merosxoʻr tushunchasi asosan moddiy-huquqiy nuqtayi nazardan yoritilgan boʻlib, uning protsessual-huquqiy maqomi yetarli darajada ochib berilmagan. Vaholanki, meros nizolari yuzasidan sud ishlarini koʻrishda merosxoʻr protsessual huquqiy voris sifatida ishtirok etadi. Bu esa uning nafaqat moddiy huquqlarni, balki sud muhokamasi doirasida protsessual huquq va majburiyatlarni ham amalga oshirishini anglatadi. Ayniqsa, meros tarkibini aniqlash, merosni qabul qilish muddati, merosxoʻrlar tarkibini belgilash yoki postmortal bola masalalari bilan bogʻliq nizolarda merosxoʻrning protsessual maqomi alohida ilmiy tahlilni talab etadi.

Shu bois, merosxoʻr tushunchasiga kompleks – moddiy va protsessual huquqiy yondashuv asosida quyidagi mualliflik taʼrifini taklif etish mumkin: *merosxoʻr – qonun yoki vasiyat asosida meros qoldiruvchining vafoti munosabati bilan uning mol-mulki, mulkiy huquqlari va majburiyatlarini universal huquqiy vorislik tartibida qabul qiluvchi hamda universal huquqiy vorislik tartibida oʻtadigan mol-mulk, mulkiy huquqlar va majburiyatlar bilan bogʻliq nizolar yuzaga kelgan taqdirda protsessual huquqiy voris sifatida sud muhokamasida ishtirok etuvchi shaxsdir.*

Mazkur taʼrif merosxoʻr institutining ikki qirrali – moddiy-huquqiy va protsessual-huquqiy tabiatini oʻzida mujassamlashtiradi hamda meros nizolarini koʻrishda yuzaga keladigan murakkab holatlarni nazariy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Merosxoʻrlikka chaqirilish asoslaridan kelib chiqib, merosxoʻrlar sifatida jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, davlat hamda fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari eʼtirof etiladi.

Yuqorida taʼkidlanganimizdek, merosxoʻrlar ham jismoniy, ham yuridik shaxslar boʻlishi mumkin. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1118-moddasida merosxoʻrlar roʻyxati keltirilgan boʻlib, ular quyidagilardan iborat:

– meros ochilgan kunda hayot boʻlgan fuqarolar, shuningdek, meros qoldiruvchining tirikligida homila holida boʻlib, meros ochilgandan soʻng tirik tugʻilgan bolalar;

– meros ochilgan kunda mavjud boʻlgan yuridik shaxslar;

– davlat va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari.

Qonuniy merosxoʻrlar doirasi qonun bilan, vasiyatnoma boʻyicha merosxoʻrlar doirasi esa vasiyatnoma bilan belgilanadi. Shuni alohida taʼkidlash joizki, meros qoldiruvchi faqat jismoniy shaxs boʻlishi mumkin boʻlsa-da, merosxoʻrlar sifatida jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, davlat, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, shuningdek, boshqa ommaviy-huquqiy subyektlar ishtirok etishi mumkin. Shu sababli merosxoʻrlar doirasi meros qoldiruvchilar doirasiga nisbatan ancha kengdir.

Vasiyat boʻyicha vorislikda esa meros huquqiy munosabatlarining subyektlari meros qoldiruvchi tomonidan hayotlik chogʻida vasiyatnomada koʻrsatilgan shaxslar doirasidan iborat boʻladi.

Vasiyatnoma boʻyicha merosxoʻrlar quyidagilar boʻlishi mumkin: unda koʻrsatilgan, meros ochilgan kunda mavjud boʻlgan yuridik shaxslar; jismoniy shaxslar, davlat va fuqarolarni oʻzini oʻzi boshqarish organlari.

Yuridik shaxslarni merosxoʻrlikka chaqirishning oʻziga xos jihati shundaki, ular faqat vasiyatnoma asosida merosxoʻr boʻlishi mumkin boʻlib, qonun boʻyicha vorislik huquqiga ega emas. Yuridik shaxs merosxoʻr sifatida eʼtirof etilishi uchun u meros ochilgan kunda yuridik shaxs maqomiga ega boʻlishi talab etiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 55-moddasi 11-qismiga muvofiq, yuridik shaxs tugatilgan deb hisoblanishi uchun uning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritilgan boʻlishi lozim. Shu bois, agar meros qoldiruvchi mol-mulkni

vasiyat qilgan yuridik shaxs meros ochilgan paytga qadar tugatilgan boʻlsa, vasiyatnoma mazkur qismda notarius tomonidan e'tiborga olinmaydi hamda mol-mulk qonun boʻyicha vorislik tartibida meros qilinadi. Natijada meros qoldiruvchining vafotidan keyin oʻz mol-mulki taqdirini belgilashga qaratilgan xohish-irodasi amalda roʻyobga chiqmay qolishi mumkin.

Biroq shuni ta'kidlash lozimki, merosxoʻrlarning aksariyati jismoniy shaxslardan iborat. Mazkur yondashuv Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining V boʻlimida mustahkamlangan koʻplab normalar mazmunida aks etadi. Jumladan, FKning 1118-moddasi 1-qismida meros ochilgan kunda hayot boʻlgan fuqarolar, shuningdek, meros qoldiruvchining tirikligida homila holida boʻlib, meros ochilgandan soʻng tirik tugʻilgan bolalar merosxoʻrlar sifatida koʻrsatilgan.

FKning V boʻlimi qoidalarini tahlil qilish kodeksning ayrim normalari faqat jismoniy shaxslarga nisbatan tatbiq etilishini koʻrsatadi. Xususan, bular noloyiq merosxoʻrlarni meros olish huquqidan chetlashtirish (FKning 1119-moddasi), merosdagi majburiy ulushga boʻlgan huquq (FKning 1142-moddasi), shuningdek, qonun boʻyicha vorislikka doir qoidalar (FKning 1134–1141-moddalari)dir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan soʻng fuqarolik qonunchiligining yangilanishi natijasida merosxoʻr boʻlishi mumkin boʻlgan subyektlar doirasi sezilarli darajada kengaydi. Xususan, meros qoldiruvchining hayotligi davrida homila holida boʻlgan hamda uning vafotidan keyin tugʻilgan shaxslarga (nafaqat uning farzandlariga) meros olish huquqi berildi. Shuningdek, qonun boʻyicha vorislikda merosxoʻrlar navbatlari soni hamda ushbu navbatlarga kiruvchi shaxslar doirasi kengaytirilib, uchta asosiy va ikki qoʻshimcha navbat, ya'ni jami besh navbat belgilandi.

Amaldagi qonun hujjatlarida qonuniy merosxoʻrlar doirasining bunday kengaytirilishi xususiy mulk huquqining qoʻshimcha kafolatlarini yaratib, meros mol-mulkning fuqarolar egaligida saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan boʻlsak, AQSHda qonuniy vorislik tizimi shtatlar qonunchiligi asosida tartibga solinadi, biroq umumiy tendensiya sifatida merosxoʻrlar doirasi 3–4 navbat bilan cheklanadi. AQSHda qarindoshlik asosidagi vorislik parantella prinsipi asosida shakllangan boʻlsa-da, u amalda ancha toraytirilgan. Uzoq qarindoshlar koʻpincha vorislik huquqidan mahrum boʻladi va meros egasiz qolgan taqdirda davlatga oʻtadi (Khisamov, 2015). Bu yondashuv individualizm va mulk huquqining iqtisodiy funksiyasini ustuvor qoʻyuvchi anglo-sakson huquqiy falsafasiga mos keladi. Shu bois mazkur model oilaviy rishtalarning maksimal saqlanishiga emas, balki huquqiy aniqlik va iqtisodiy samaradorlikka yoʻnaltirilgan.

Islom meros huquqi Qur'on, sunnat va fiqh qoidalariga asoslanadi. Musulmon meros huquqida merosxoʻrlar uch asosiy guruhga boʻlinadi va ularning ulushlari qat'iy belgilangan. Birinchi navbatdagi merosxoʻrlar mavjud boʻlsa, keyingi navbatdagilar vorislik huquqiga ega boʻlmaydi (Ramazanov & Aliyeva, 2019). Bu modelning konseptual asosini normativ-diniy adolat gʻoyasi tashkil etadi. Mulkning oilada taqsimlanishi qat'iy qoidalarga boʻysundirilgan boʻlib, huquqiy aniqlik yuqori darajada ta'minlanadi. Biroq tizimning qat'iyligi uni dunyoviy fuqarolik qonunchiligiga toʻliq integratsiya qilishni murakkablashtiradi.

Germaniya Federativ Respublikasida qonuniy merosxoʻrlar navbatining cheklanmaganligi xos boʻlib, natijada meros qoldiruvchining uzoq qarindoshlari ham merosxoʻr sifatida e'tirof etilishi mumkin. Bunda merosxoʻrlar doirasi hamda ularning merosga da'vogarlik tartibi parantellalar, ya'ni umumiy ajdod va uning avlodlaridan iborat boʻlgan qon-qarindoshlar

guruhi asosida belgilanadi. Bu yondashuv kontinental huquq tizimiga xos boʻlib, unda oila huquqiy himoyaning markaziy instituti sifatida namoyon boʻladi.

Oʻzbekiston amaldagi fuqarolik qonunchiligi Germaniya modeliga yaqin, yaʼni qarindoshlik prinsipi saqlanadi, navbatlar tizimi mavjud, davlatga oʻtish esa oxirgi chora sifatida qoʻllanadi. Shu bilan birga, shariat anʼanalari ijtimoiy ongda muhim oʻrin tutadi.

Taʼkidlash joizki, qonun boʻyicha ham, vasiyatnoma boʻyicha ham merosxoʻrlar mavjud boʻlmagan yoki ular merosdan voz kechgan hollarda, meros mol-mulkning davlat yoxud mahalliy hokimiyat mulkiga oʻtishi zamonaviy huquqiy tizimlarning deyarli barchasida nazarda tutiladi. Biroq mazkur holatlarda meros qoldiruvchining majburiyatlari boʻyicha javobgarlik masalasi amaldagi qonunchilikda har doim ham yetarli darajada aniq tartibga solinmagan.

Ushbu vaziyatda asosiy muammo shundan iboratki, vafot etgan qarzdorning mol-mulki egasiz deb topilib, davlat yoki mahalliy davlat hokimiyati tasarrufiga oʻtgan taqdirda, kreditorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash masalasi dolzarblashadi. Chunki bunday holatda kreditorlar uchun qarzni undirish boʻyicha samarali huquqiy kafolatlar deyarli qolmaydi.

Shu bilan birga, Fuqarolik kodeksiga berilgan sharhlarda umumiy qoida sifatida egasiz qolgan mol-mulkni qabul qilgan subyekt meros qoldiruvchining qarzlari yuzasidan kreditorlar oldida oʻziga oʻtgan meros qiymati doirasida javobgar boʻlishi lozimligi qayd etilgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, Meksika Fuqarolik kodeksining 1636-moddasi qoidalarida egasiz qolgan mol-mulkning davlatga emas, balki ommaviy xayriya tashkilotlariga oʻtishi belgilangan. Mazkur yondashuvdan koʻrinadiki, egasiz qolgan mol-mulk institutini huquqiy jihatdan shakllantirishning asosiy maqsadi mol-mulkni saqlab qolish hamda uning foydali xususiyatlaridan ijtimoiy manfaatlar yoʻlida foydalanish zaruriyati bilan bevosita bogʻliqdir. Koʻpchilik mamlakatlarda mazkur institutga nisbatan aynan shunday konseptual yondashuv mavjud.

Xorijiy huquqiy hujjatlar va amaliyotni tahlil qilish, egasiz mol-mulk taqdirini belgilashda huquqni qoʻllash amaliyotida ikkita shartli yoʻnalish shakllanganligini koʻrsatadi (Abramenkov & Saraev, 2018).

*Birinchi konsepsiya* "egallab olish huquqi" deb nomlanadi. Qiziq tomoni shundaki, uni qoʻllab-quvvatlovchi davlatlar maʼlum bir huquqiy oilaga mansubligi bilan bogʻliq emas. Bu konsepsiya tarafdorlari Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSH va Avstriyadir. *Ikkinchi konsepsiya* egasiz qolgan mol-mulkni davlat tomonidan meros qilib olish huquqining meros huquqi normalarida mustahkamlanishida namoyon boʻladi. Bu huquqiy holatni oʻz qonunchiligida belgilagan mamlakatlar qatoriga Ispaniya, Germaniya va Belgiya kiradi.

Taqdim etilgan konsepsiyalar tasnifining markazida meros qoldiruvchining mavjud qarzlari bilan birgalikda egasiz mol-mulkka boʻlgan huquqlarni olishning standart tamoyillarini qoʻllash yotadi. *Birinchi konsepsiya* egasiz mol-mulkka boʻlgan huquqlarni qarz va majburiyatlardan xoli holda olishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv iqtisodiy pragmatizm va huquqiy aniqlik tamoyillariga asoslanadi. Uning maqsadi mol-mulkni tezkor ravishda iqtisodiy muomalaga qaytarishdan iborat. Biroq bu model universal huquqiy vorislik tamoyilining izchilligini taʼminlamaydi hamda kreditorlar manfaatlarini toʻliq himoya qilmaydi.

*Ikkinchi konsepsiya* esa egasiz mol-mulkni qabul qilishni tashkil etish bilan bogʻliq huquq va majburiyatlar hajmini toʻliq qabul qilish bilan tavsiflanadi. Yaʼni, ikkinchi konsepsiya

tarafdori boʻlgan davlatlar meros qoldiruvchining egasiz mol-mulkiga boʻlgan huquqlari bilan birga majburiyatlarini ham oʻz zimmasiga oladi. Mazkur modelga koʻra, merosxoʻrlar mavjud boʻlmaganda davlat meros qoldiruvchining huquqlari bilan birga majburiyatlarini ham qabul qiladi. Shu tariqa universal huquqiy vorislik tamoyili saqlanib qoladi, kreditorlar talablari umumiy tartibda qanoatlantiriladi va meros huquqining tizimli yaxlitligi taʼminlanadi.

Rossiya Federatsiyasi va Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligiga koʻra, davlat bunday vaziyatda qonuniy merosxoʻr sifatida eʼtirof etiladi va shu bois nafaqat meros qoldiruvchining huquqlarini, balki majburiyatlarini ham oʻz zimmasiga oladi. AQSHda esa merosxoʻrlar qoldirmagan shaxsning mol-mulki egasiz deb hisoblanib, hech qanday majburiyatlarsiz davlat tasarrufiga oʻtadi.

Anʼanaviy islom meros huquqida davlat huquqiy tashkilotlari, odatda, meros oluvchilar qatoriga kirmaydi. Biroq baʼzi hollarda, merosxoʻrlar butunlay boʻlmaganda, merosni davlat xazinasi oladi (Nurgaleev, 2016).

Qiyosiy tahlil shuni koʻrsatadiki, xorijiy modellarning konseptual farqi, avvalo, egasiz mol-mulkni qabul qilish jarayonida meros qoldiruvchining majburiyatlari taqdirini belgilashga borib taqaladi. Yaʼni asosiy savol shundan iboratki: egasiz qolgan mol-mulk huquq va majburiyatlar birligida qabul qilinadimi yoki faqat aktiv sifatida oʻtkaziladimi? Birinchi model majburiyatlardan xoli qabul qilishni, ikkinchi model esa universal huquqiy vorislik asosida toʻliq qabul qilishni nazarda tutadi. Oʻzbekiston Respublikasining huquq tizimi kontinental modelga mansub boʻlib, fuqarolik qonunchiligi universal huquqiy vorislik tamoyiliga asoslanadi. Shu bois egasiz qolgan mol-mulk institutini tartibga solishda davlatning qonuniy merosxoʻr sifatida eʼtirof etilishi va meros qoldiruvchining huquq hamda majburiyatlarini birgalikda qabul qilishi tizimli jihatdan maqbulroq hisoblanadi. Mazkur yondashuv meros huquqining ichki mantiqiy izchilligini saqlaydi, kreditorlar manfaatlarini himoya qiladi hamda protsessual huquqiy vorislik institutining barqaror ishlashini taʼminlaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, meros mol-mulk egasiz deb topilib, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi yoki davlat mulkiga oʻtkazilgan hollarda, meros qoldiruvchining majburiyatlari boʻyicha kreditorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmi amaldagi qonunchilikda yetarli darajada aniq tartibga solinmagan. Bunday vaziyatlarda kreditorlar uchun qarzni undirish imkoniyatlarining cheklanishi fuqarolik muomalasida adolat va barqarorlik tamoyillariga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Shu bilan birga, egasiz meros mol-mulkni qabul qilgan subyektning meros qoldiruvchining qarzlari boʻyicha javobgarligi masalasini huquqiy jihatdan aniqlashtirish kreditorlar manfaatlarini himoya qilish hamda fuqarolik-huquqiy munosabatlarda muvozanatni taʼminlashga xizmat qiladi.

**Xulosa**

Yuqorida keltirilgan qiyosiy-huquqiy tahlildan kelib chiqib, egasiz meros mol-mulkining huquqiy taqdirini belgilashda universal huquqiy vorislik tamoyilining izchilligini taʼminlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, merosxoʻrlar mavjud boʻlmagan taqdirda meros mol-mulkining fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi yoki davlat mulkiga oʻtishi holatlarida kreditorlar manfaatlarini himoya qilish masalasi dolzarbdir.

Shu munosabat bilan, fuqarolik qonunchiligida quyidagi qoidani bevosita mustahkamlash maqsadga muvofiq hisoblanadi: *egasiz meros mol-mulkini qabul qilgan subyekt (davlat yoki fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi) meros qoldiruvchining kreditorlari oldida oʻziga oʻtgan meros qiymati doirasida javobgar boʻladi.*

Mazkur norma, bir tomondan, universal huquqiy vorislik tamoyilining mantiqiy davomidir, ikkinchi tomondan esa kreditorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kafolat mexanizmini yaratadi. Zero, meros qoldiruvchining oʻlimi majburiyatlarning avtomatik ravishda bekor boʻlishiga olib kelmasligi, balki ularning meros tarkibi doirasida davom etishi fuqarolik huquqining umumiy prinsiplaridan kelib chiqadi.

Taklif etilayotgan qoida qonunchilikda mustahkamlangan taqdirda quyidagi huquqiy natijalarga erishiladi:

*Kreditorlar huquqlarining samarali himoyasi ta’minlanadi.* Davlat yoki boshqa ommaviy subyekt meros mol-mulkini qabul qilgan holda, majburiyatlardan toʻliq ozod boʻlib qolmaydi, balki meros qiymati doirasida javobgar boʻladi. Bu kreditorlar uchun huquqiy kafolat yaratadi.

*Majburiyatlarning uzluksizligi va javobgarlikning adolatliligi ta’minlanadi.* Mulkning oʻtishi majburiyatlardan ajratilmaydi, bu esa meros huquqining tizimiy yaxlitligini saqlaydi.

*Huquqiy noaniqliklar bartaraf etiladi.* Amaliyotda egasiz meros mol-mulkining qarzlardan xoli oʻtishi yoki oʻtmasligi masalasida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan talqinlar xilma-xilligiga chek qoʻyiladi.

*Sud nizolarining kamayishiga xizmat qiladi.* Qoidaning aniq normativ mustahkamlanishi meros qoldiruvchining qarzlari yuzasidan davlat yoki boshqa subyekt javobgarligi bilan bogʻliq bahslarning oldini oladi hamda mazkur toifadagi ishlar boʻyicha sudlarga murojaatlar sonini qisqartiradi.

Shu tariqa, egasiz meros mol-mulkini qabul qilgan subyektning meros qiymati doirasida javobgarligini qonunchilikda aniq belgilash Oʻzbekiston Respublikasida meros huquqi institutining izchilligini ta’minlash, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish hamda protsessual huquqiy vorislik mexanizmini barqarorlashtirish nuqtayi nazaridan ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi.

## REFERENCES

1. Abramenkov, M. S., & Saraev, A. G. (2018). *Nasledstvennoe pravo [Inheritance law]*. Yurait.
2. Aleshina, A. V., & Kosovskaya, V. A. (2007). Nasledniki po zakonu i ocherednost ikh prizvaniya k nasledstvu v Rossiyskoy Federatsii i zarubezhnykh stranakh [Heirs by law and the order of their succession in the Russian Federation and foreign countries]. *Society. Environment. Development, 1*(14), 72–76.
3. Amirov, M. I. (2016). *Sub’’ekty nasledstvennykh pravootnosheniy [Subjects of hereditary legal relations]* (Conference presentation). *Sovremenniye tendentsii razvitiya grazhdanskogo i grazhdanskogo protsessualnogo zakonodatelstva i praktiki ego primeneniya [Modern trends in the development of civil and civil procedural legislation and the practice of its application]*. Kazan University Press.
4. Gasanov, Z. U. (2013). Naslednik kak sub’’ekt otnosheniy po nasledovaniyu: prava, obyazannosti, otvetstvennost [The heir as a subject in inheritance relations: rights, duties, responsibilities]. *Scientific Notes of Kazan University*, *155*(4), 109–119
5. Grudtsyna, L. Yu. (2015). *Spravochnik naslednika [Heir’s handbook]* (p. 280). Yustitsinform.
6. Kazantseva, A. Y. (2015). *Teoriya nasledstvennogo i prichastnykh k nemu pravootnosheniy po grazhdanskomu pravu Rossiyskoy Federatsii [Theory of hereditary and related legal relations under the civil law of the Russian Federation]* (Abstract of Doctoral dissertation). Tomsk State University.
7. Khisamov, V. R. (2015). *Sravnitelnyy analiz nasledovaniya po zakonu Rossiyskoy Federatsii*

*i Soedinennykh Shtatov Ameriki [Comparative analysis of inheritance under the laws of the Russian Federation and the United States of America]* (Conference presentation). *Problemy vnedreniya rezultatov innovatsionnykh razrabotok [Problems of implementation of the results of innovative developments].* Omega Science.

8. Kirillova, N. S. (2002). *Nasledstvennoe pravootnoshenie [Hereditary legal relationship]* [Abstract of PhD Dissertation]. Moscow State University.

9. Kotsyumbas, A. A. (2006). Chto takoe nasledstvo i kto takie nasledniki? [What is inheritance and who are the heirs?]. *Bulletin of the Belgorod Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia,* (1), 171–173.

10. Kunitsin, A. P. (2011). *Pravo estestvennoe [Natural law]* (p. 162). Moscow.

11. Limanskiy, G. S. (2006). *Nasledstvennoe pravootnoshenie: teoretiko-metodologicheskie i prakticheskie problemy [Inheritance legal relationship: theoretical-methodological and practical problems]* (Doctoral dissertation). Moscow State University.

12. Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan. (2013). *O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga sharh [Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan].* Baktria Press.

13. Nurgaleev, R. M. (2016). *Nasledstvennoe pravo v islame: [Inheritance law in Islam]* (5th ed). Light of Islam. https://www.al-hakk.ru/upload/iblock/e0a/e0ab7f166ec07b9cccf6bdfc2b9e5ae0.pdf

14. Odilqoriyev, X. T. (2018). *Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]* (p. 299). Justice.

15. Pecheniy, O. P. (2014). Zashchita v nasledstvennykh pravootnosheniyakh [Protection in inheritance legal relations]. *Inheritance Law*, (2), 40.

16. Ramazanov, A. Kh., & Aliyeva, A. Kh. (2019). Nekotorye osobennosti regulirovaniya nasledstvennykh otnosheniy v musulmanskoy pravovoy sisteme [Some features of the regulation of inheritance relations in the Muslim legal system]. *Law and Right,* (3), 127–128.

17. Republic of Uzbekistan. (2025). *Civil Code: Part two.* https://lex.uz/docs/-180552

18. Salomatova, T. V. (2002). *Nasledovaniye po zaveshaniyu i po zakonu [Inheritance by will and by law]* (p. 5). Moscow: Os-89.

19. Sergeev, A. P., & Tolstoy, Yu. K. (Eds.). (1999). *Grazhdanskoe pravo. Chast 3 [Civil law. Part 3]* (p. 510). Moscow.

20. Shirochenko, I. O. (2018). Rezhim "vymorochnogo imushestva" v mezhdunarodnom chastnom prave [Regime of "escheat property" in private international law]. *Sustainable Development of Science and Education,* (1), 92.

21. Tolstoy, Yu. K. (2003). *Kommentariy k chasti tretey GK RF [Commentary to the third part of the Civil Code of the Russian Federation]*. Avenue.

22. United Mexican States. (1928). Federal Civil Code. http://www.wipo.int/wipolex/ru/details.jsp?id=14507

23. Yaneva, R. R. (2009). *Osobennosti rassmotreniya sudami del, svyazannykh s nasledovaniem [Features of court consideration of cases related to inheritance]* (Candidate dissertation) (p. 227). Orenburg Institute (branch) of Moscow State Law Academy.

# O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI TAHLILI

ILMIY-TAHLILIY JURNAL

2026-YIL 1-SON

# ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

2026 ГОД № 1

# UZBEKISTAN LAW REVIEW

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL

2026 ISSUE 1

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.1.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.